

**ICHKI ISHLAR ORGANLARINING HUQUQIY TARG'IBOT  
JARAYONIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALAR BILAN  
HAMKORLIGINING O'RNI**

G'ulomov Akbarjon Inomjon o'g'li

Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi kursanti

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqola hozirga zamonda dolzarb bo'lib hisoblangan masala, ya'ni, jamiyatda fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirishda Ichki ishlar organlari bilan ommaviy axborot vositalarining o'rni va ularni yanada yuksaltirishga qaratilgan taklif va mulohazalar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** Huquq, ong, madaniyat, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, islohot, burch, mas'uliyat, vazifa, yuksaltirish,.

### **АННОТАЦИЯ**

В данной статье рассматривается вопрос, который считается актуальным в настоящее время, а именно:

Представлены роль органов внутренних дел и средств массовой информации в формировании правового сознания и культуры граждан в обществе, а также предложения и замечания, направленные на их дальнейшее совершенствование.

**Ключевые слова:** Право, сознание, культура, правосознание, правовая культура, реформа, долг, ответственность, долг, продвижение по службе.

### **ANNOTATION**

This article deals with the issue that is considered relevant nowadays, that is,

The role of internal affairs bodies and mass media in the formation of legal consciousness and culture of citizens in the society and proposals and comments aimed at their further improvement are presented.

**Key words:** Law, consciousness, culture, legal consciousness, legal culture, reform, duty, responsibility, duty, promotion.

Mamlakatni fuqarolik jamiyati yo'lidan jadal rivojlanishi va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning samarasi mamlakat yoshlarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatining yuksaklik darajasiga bog'liq. Mamlakatimizda hamma

sohalarda olib borilayotgan islohotlarning mazmunini tushunish, ushbu jarayonda faol ishtirok etish, yoshlarning huquqiy madaniyati yuqori bo'lishini taqozo etmoqda. Buning dolzarbligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoev huquqiy madaniyatning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi: "...qonunustuvorligini ta'minlashda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolarni qonunga hurmat ruhida tarbiyalashmuhim ahamiyat kasb etadi" - deya ta'kidlaydi. O'zbek huquqshunosolimlaridan professor X.Odilqoriev: "Aslida, huquqiy madaniyat o'z mohiyat e'tibori bilan insonning siyosiy va huquqiy jihatdan ijtimoiylashuvi (sotsializatsiyasi) natijasidir. Bunda insonning ijtimoiy tajribasi, bilim va ko'nikmalari to'laligicha namoyon bo'ladi. Inson o'z manfaat va ehtiyojlarini qondirishga qay darajada qobil, ayni vaqtda, jamiyat manfaatlarini taminlashga qanchalik samarali hissa qo'sha oladi, degan savollarga javob ko,p jihatdan uning ichki ma'nnaviyati, e'tiqodi va huquqiy madaniyatiga bog'liq. Shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi uning jamiyat huquqiy hayoti va amaliyotiga faol daxldorlik holatini ko'rsatadi. Mazkur daxldorlik darjasи shaxs huquqiy bilimlarni qadam-baqadam o'zlashtirib borgani sayin o'sib boradi va uning huquqiy me'yorlariga ongli, ixtiyoriy rioya etish saviyasi orqali namoyon bo'ladi" Rus olimi A.P.Semitiko huquqiy madaniyat tarkibiga nafaqat huquqiy ong balki uning rivojlanish darajasini ham kiritadi: "huquqiy madaniyat mazmuniga shunchaki qonuniylik, huquqiy ong emas, balki, ularning rivojlanish darjasи ham kiradi. Shuningdek, aholi huquqiy ongingin yuksakligi, ya'ni aholi huquqdan qay darajada xabardorligi, huquqiy qadriyatlarni qay darajada o'zlashtirganligi, huquqiy faoliyatning qanchalik rivojlanganligi, jamiyat a'zolarining huquqi mustahkamlangan qonun hujjalarning mukammalligi ham huquqiy madaniyat mazmuniga mansub bo'ladi". Quyidagi fikrlardan kelib chiqib quyidagicha ta'rif berish mumkin. Huquqiy madaniyat shaxsning ijtimoiy, huquqiy va siyosiy institutlar ta'sirida, milliy qadryatlar asosida huquqiy va siyosiy ijtimoiylashuvi hamda o'z huquq va burchlari to'g'risidagi shaxsiy huquqiy ong, huquqiy bilim va huquqiy xulq-atvorining amaldagi ifodasidir.

Maqolada IIO huquqiy targibotni amalga oshirishda bevosita ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik orqali yoshlarning huquqiy madaniyatni yuksaltirish usul va vositalari muxokama qilinadi. Xususan xozirda rivojlanib borayotgan ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar ongiga huquq haqidagi ma'lumotlarni yetkazish tushuntirilgan. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish va ularning samarasi tahlil qilindi. Hozirda ommaviy axborot vositalari yoshlarni xarakatga keltiruvchi kuchgaaylanib bormoqda. Yoshlar esa unga qaram bo'lib bormoqda. Natijada ommaviyaxborot vositalarining mas'uliyati yanada ortib bormoqda. Mamlakatning har biryoshlari o'z huquq va burchlarini hamda

mas'uliyatini yaxshi bilishi lozim. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirish, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, yangi qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar yuzasidan aholini xabardor qilish, mazmun-mohiyatini tushuntirish maqsadida Andijon viloyat Ichki ishlar boshqarmasining Huquqiy targ'ibot yo'nalishi bo'yicha bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda. Xususan, joriy yilning 1-choragi davomida boshqarmasining huquqiy targ'ibot yo'nalishi bo'yicha 161 marotabatarg'ibot tadbirlari tashkil etildi. Ulardan 36 marotaba og'zaki, 119 marotaba ommaviy axborot vositalari orqali targ'ibot tadbirlari tashkillashtirilgan. Shuningdek, tashkil etilgan targ'ibot tadbirlarida 6 turdag'i, 66 ta ko'rgazmali huquqiy targ'ibotlar tarqatildi. Boshqarmasining huquqiy targ'ibot yo'nalishi bo'yicha aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishda ijtimoiy tarmoqlaridan samarali tarzda foydalanilmoqda. Xususan, viloyat Ichki Ishlar boshqarmasining <https://aviib.uz> rasmiy veb-sayti, telegram ijtimoiy tarmog'idagi kanal va "facebook" ijtimoiy tarmog'idagi sahifasi orqali har kuni yangi qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar mazmuni va ahamiyati yuzasidan annotatsiya va infografikalar, aholini qiziqtiradigan masalalar yuzasidan savol-javoblar, so'rovnomalar, IIB boshqarmasi va tuman (shahar) IIB bo'limlari tomonidan amalga oshirilgan ijobiy ishlar, qanoatlantirilgan murojaatlar, olib borilgan targ'ibot tadbirlari yoritilishi ta'minlandi. Xususan, ijtimoiy tarmoqlar orqali:

- viktorina shaklida bilasizmi rukni (har kuni 10 tadan ortiq savol);
- so'rovnomalar (har chorakda 1 marotaba);
- Huquqimni bilaman radio eshitirish va ovozli habarlar (har haftada 4 marotaba);
- postlar, videoroliklar, qisqa kontentlar, inforgafika va boshqalar orqali yoritilishi ta'minlandi.

Viloyat teleradiokompaniyasi va Andijon shahar "Taraqqiyot tv" bilan hamkorlikda "Savol bering, javob beramiz" rukni tashkil etilib, har haftada boshqarmada savol javoblar tayyorlanib televide niye orqali yorilmoqda. "Sevimli", "Zo'r tv" va "O'zbekiston 24" telekanallari bilan hamkorlikda "IIO organlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar", "Bir murojaat izidan" va boshqa yo'nalishdagi lavhalar tayyorlanib efirga o'zatilishi ta'minlanmoqda. Viloyat "Vodiysadosi" radioasida "Inson va qonun", "Qonun va ijro", "Huquqimni bilaman" va boshqa eshittirishlar orqali haftada to'rt marotaba intervyular tayyorlanib, efirga o'zatilmoqda Xususan, viloyat Ichki Ishlar boshqarmasining Andijon.IIB.uz rasmiy veb-sayti, telegram ijtimoiy tarmog'idagi kanal va "facebook" ijtimoiy tarmog'idagi sahifasi orqali har kuni yangi qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar mazmuni va ahamiyati yuzasidan annotatsiya va

infografikalar, aholini qiziqtiradigan masalalar yuzasidan savol-javoblar, so‘rovnomalari, IIB boshqarmasi va tuman (shahar) IIB bo‘limlari tomonidan amalga oshirilgan ijobiy ishlari, qanoatlantirilgan murojaatlar, olib borilgan targ‘ibot tadbirlari yoritilishi ta’minlandi. Xususan, ijtimoiy tarmoqlar orqali:

“Har qanday jamiyat, davlat ma’lumadolathni himoya etuvchi, huquqiy qonunlar asosida idora etiladigan, adolatsizlikka yo‘l qo‘yilmaydigan, qonun ustuvor bo‘lgan adolatli jamiyat ta’limotini yaratishga, uni rivojlantirishga katta hissa qo‘sadi”- degan buyuk mutafakkir Abu Ali Ibn Sino. Hozirgi vaqtida O’zbekistonning shiddat bilan o’sib, tobora rivojlanib borayotgan mamlakatga, inson, uning huquqlari, manfaat va erkinliklarini haqiqiy qadriyat deb biladigan demokratik, ijtimoiy- siyosiy va fuqarolik institutlariga ega bo‘lgan mustaqil va suveren davlatga aylanishini ta’minlab bergen ko’plab hal qiluvchi omillarni misol qilib keltirish mumkin. O’zbekistonning mustaqil rivojlanish davrida nafaqat umume’tirof etilgan inson huquqlari va erkinliklarining butun kompleksini qonuniy mustahkamlagan barqaror huquqiy baza tashkil etildi, balki inson huquqlari sohasida inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga rioya etishni o’rnatuvchi tartib va mexanizmlar yaratildi. Shu boisdan ham O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9- yanvar PF-5618- sonli “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to’g’risida»gi farmoni qabul qilindi.“Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to’g’risida»gi farmonni qabul qilish zarurati:

- Huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta’lim va tarbiya borasidagi ishlari tizimli va uzviy olib bormayapti:

- Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o’rtasidagi muvozanatni saqlash g’oyalarini aholi ongiga singdirish ishlarining yetarli olib borilmasligi ham qonun ustuvorligini ta’minalashga o’zining jiddiy salbiy ta’sirini ko’rsatmoqda.

- Aholining huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan, targ‘ibotning ilg’or va ta’sirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ijobiy tajribalaridan yetarli darajada foydalanimayapti. “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to’g’risida» gi farmoniga muvofiq “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Konsepsiysi” ishlab chiqildi.

Konsepsianing asosiy maqsadi va vazifalari:

- aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishi, o’z huquqlarini biladigan va qonunlarni hurmat qiladigan, huquqiy bilimlarini kundalik hayotda

qo'llay oladigan, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, huquqbuzarlikka nisbatan murosasiz munosabatda bo'ladigan fuqarolarni tarbiyalashdan iborat.

Konsepsiyaning asosiy yo'naliishlari:

-Bolalar va yoshlar ongiga ilk huquqiy tushunchalarini va odob-axloq qoidalarini tizimli singdirib borish, huquqiy ta'lif-tarbiyani uzviy va tizimli olib borishga erishish;

- huquqiy targ'ibotning innovatsion usullarini yaratish va joriy etish, huquqiy bilimlarni targ'ib qilishda ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish;

-mansabdor shaxslar va fuqarolarda qonunga va huquqga bo'lgan hurmat hissini kuchaytirish, huquqbuzarliklar profilaktikasining samaradorligini ta'minlash.

Yoshlarlarning huquqiy savodxonligini ta'minlashda ommaviy axborot vositalarining roli juda muhim. Shu bois milliy media makonda huquqiy mavzulardagi ruknlarga e'tiborni yanada kuchaytirish, aholi o'rtasida ko'proq ko'tarilayotgan muammolarni davriy nashrlar sahifalarida, televideenie va radio eshittirishlarida, ijtimoiy tarmoqlarda tushuntirib borish zarur. Hozirgi globallashuv, ilmiy-texnik taraqqiyot davrida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan, targ'ibotning ilg'or va ta'sirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ilg'or tajribalarini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

"Yuksak huquqiy madaniyat - mamlakat taraqqiyoti kafolati" degan konseptual g'oya asosida aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo'lislari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishlari uchun tizimli va keng qamrovli huquqiy

targ'ibot tadbiralarini tashkil qilish davlat organlari va tashkilotlarning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish "shaxsoila-mahalla-ta'lif muassasasi tashkilot jamiyat" prinsipi bo'yicha tizimli va uzviy tashkil etiladi. Darhaqiqat, huquq asoslarini, Konstitutsiya va qonunlar mazmunmohiyatini, yangi qonuniy hujjatlar, huquqiy me'yorlarni kishilarining, birinchi navbatda, yoshlarning ongi, qalbiga singdirishda hech bir narsa o'z ahamiyatiga ko'ra huquqiy ta'lif-tarbiyaga tenglasha olmaydi. Huquqiy madaniyatni rivojlantirishda nodavlat idoralar bilan ishslash, keng jamoatchilikni huquqdan xabardor qilish korrupsiyaga qarshi kurashda kuchli rag'batlantiruvchi omil sifatida ishlaydi.

31.10.2024, UNITED KINGDOM

<https://confrencea.one>

<https://stat.uz/uz/component/search/?searchword=huquqiy&ordering=newest&searchphrase=all>

